

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/05.05.2023.Ped.166.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

OTABOYEVA ZULFIYA G‘OFUROVNA

**KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA HAMKORLIK
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH
(“Umumiy pedagogika” fani misolida)**

13.00.02-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Otaboyeva Zulfiya G‘ofurovna

Klasterli yondashuv asosida talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (“Umumiy pedagogika” fani misolida)..... 5

Otaboyeva Zulfiya Gafurovna

Совершенствование методики развития компетенций сотрудничества у студентов на основе кластерного подхода (на примере дисциплины «Общая педагогика».....23

Otaboyeva Zulfiya Gafurovna

Improving the methodology for developing students' cooperation competencies based on the cluster approach (Using “General pedagogy” as an example.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/05.05.2023.Ped.166.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

OTABOYEVA ZULFIYA G‘OFUROVNA

**KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA HAMKORLIK
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH
(“Umumiy pedagogika” fani misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.Phd/Ped4581 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasiga (www.adpi.uz.) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Azimova Ziyoda Ergashevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

-
-
-
-
-

Yetakchi tashkilot:

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat pedagogika instituti huzuridagi PhD.03/05.05.2023.Ped.116.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «___» _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Do‘stlik ko‘chasi, 4-uy. Tel.:(374) 224-01-70 ; e-mail: adpi@edu.uz, p-institut@exat.uz)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: Andijon shahri, Do‘stlik ko‘chasi, 4-uy.

Tel.: (374) 224-01-70

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil «___» _____dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

B.M.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

D.T.Samatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.A.Sirojiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi b.f.d., professori

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv taraqqiyot dasturlarining o'zgarishi iqtisodiyot va jamiyat o'rtasidagi axborot va madaniy almashuvini yagona makonga birlashtirish mexanizmlarini jadallashtirishni taqozo qiladi. Zamonaviy insonning axborot va madaniy qadriyatlarning tashuvchisi sifatida tabiat, jamiyat va odamlar bilan assotsiatsiyasi, kooperativ faoliyati va hamkorlik jarayonlari faollashadi. Shuning uchun jamiyatda va shaxsiy yo'nalishda hamkorlik muammosini konseptual jihatdan yangicha anglash zarur, chunki hamkorlik tamoyillariga e'tibor turli darajadagi shaxslararo o'zaro ta'sirlarni rivojlantirishning dominant vektoriga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, hamkorlik kompetensiyalarini zamonaviy mutaxassisning xulq-atvorini belgilovchi madaniy qadriyatlar doimiyligi sifatida qabul qilinadi. Zamonaviy ijtimoiy rivojlanish davri bugungi ijtimoiy-madaniy vaziyatda subyekt hayotining obyektiv murakkabligi va xilma-xilligiga oldindan ishora qiladi va uni turli darajadagi munosabatlarda "hamkor bo'lish" zarurligiga o'rgatadi. Shu munosabat bilan, zamonaviy hamjamiyatda hamkorlik mentalitetini shakllantirishni bosh maqsad etib belgilagan tadqiqot ishini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'lim tizimining xalqarolashuvi juda o'xshash shakl va yo'nalishlarda davom etmoqda, shuning uchun hamkorlikka oid xorijiy tajribalarni mahalliy universitetlar tomonidan o'zlashtirilishi dunyo standartlaridagi raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib chiqarishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, globallashuv jarayoni yangi sharoitlarda samarali ishlashga qodir bo'lgan professional kadrlarga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammoni hal qilish bugungi kunda talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bog'liq. Keng ma'noda talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish deganda, turli darajadagi ta'lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot, o'quv va boshqaruv faoliyatiga turli xalqaro jihatlarni kiritish tushuniladi.

Respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ishlari strategik taraqqiyot davlat dasturining ustuvor vazifalari sirasiga kiradi. Xususan, joriy yilning 30-oktyabr kuni Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan davlat mukofotlarini topshirdi hamda soha vakillari bilan ta'limda amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan muloqot o'tkazdi. Prezidentimizning maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta-maxsus, oliy ta'lim va malaka oshirish tizimida yagona uzviy zanjirni yo'lga qo'yish uchun pedagogik ta'lim klasterlari tashkil etilishini ma'lum qilganliklari ta'lim sohasi jonkuyarlari uchun haqiqiy xushxabar bo'ldi. "Klaster tajriba-sinov tariqasida dastlab Andijon va Buxoro shaharlaridagi pedagogika kollejlarida barpo etiladi va hududlardagi pedagogika institutlari boshqaruvida bo'ladi"¹, -deyildi muloqotda. Ushbu strategik maqsadni amalga oshirishda talabalar yangi tamoyillari – hamkorlik tamoyillariga asoslangan davrga qadam qo'yanliklarini hamkorlik fenomeni doirasida ilmiy-nazariy va amaliy asoslardagi tadqiqotlarning olib borilishida mazkur dissertatsiya ishimiz ma'lum ma'noda xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'qituvchi va murabbiylar kunidagi tadbir"dagi so'zlagan nutqi. "Yangi Andijon" ijtimoiy-siyosiy gazeta. №199 (1260), 2024 yil 1-oktyabr soni

Ushbu dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni², 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”³, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari⁴, 2020-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2909-son qarori⁵, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁶gi qarorlarda belgilangan vazifalarni bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot, yuqoridagi hujjatlarda ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga, shuningdek, Oliy ta‘lim tizimining sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlar samaradorligini yaxshilashga qaratilgan. Dissertatsiya, ta‘lim jarayonida hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish va talabalarni global miqyosda raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganligi darajasi. Oliy malakali mutaxassislar tayyorlash va rivojlantirish jarayoni qonuniyatlari va tendensiyalari, bo‘ljak o‘qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishdagi muammolari Respublikamiz olimlaridan Sh.A.Abdullayeva (pedagogik hamkorlik va hamkorlikka oid yondashuvlar)⁷, Z.E.Azimova (shaxslararo munosabatlar integral diagnostikasi)⁸, N.G.Dilova (ta‘lim jarayonida o‘zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish)⁹, U.A.O‘rinov (o‘yin vositasida do‘stona munosabatlarni shakllantirish)¹⁰, D.Ro‘ziyeva, (talabalar jamoasida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish)¹¹, Q.Q.Inaqov (hamkorlik pedagogikasi asosida ta‘lim-tarbiya sifatini yaxshilash)¹²,

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022—2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5748 son Qarori.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qarori

⁷ Abdullayeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2017. – 178 bet.

⁸ Azimova Z.E. Talabalarning shaxslararo munosabatlari integral diagnostikasi: Ped.fan.fals...d-ri (PhD) diss....T. 2009, 34 bet.

⁹ Dilova N.G. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish.

Ped.fan.fals...d-ri (PhD) diss....T Toshkent – 2018 yil. 36-38-40-41-152 bet

¹⁰ O‘rinov U.A. Kasb-hunar ta‘limida ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish metodikasini takomillashtirish: p.f.f.d. (PhD diss.

¹¹ Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Xolikova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metodik qo‘llanma. - Toshkent: 2013. - 36 bet,

¹² Inaqov Q.Q. Hamkorlik pedagogikasi asosida ta‘lim-tarbiya sifatini takomillashtirish. p.f.f.d. (PhD diss.... Toshkent – 2019. 85-bet.

B.B.Sa'dullayev (talabalarda do'stona munosabatlarga asoslangan ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish)¹³, N.A.Muslimov (kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi)¹⁴larning hamkorlik nazariyasi haqidagi ilmiy qarashlari o'rganildi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan S.P.Ivanova (o'qituvchilik faoliyatiga kasbiy va shaxsiy tayyorgarlikni tahlil qilishda psixologik yondashuv) I.A.Zimnyaya, A.G.Kassirov (hamkorlikda pedagogik faoliyatga shaxsiy-professional tayyorgarlik tahlili) Sh.A.Amonashvili (Bolalarga insonparvarlik va shaxsiy yondashuv) A.G'.Asmolov (kooperativ pedagogika va madaniy-tarixiy psixologiya o'rtasidagi hamkorlik), B.F.Porshnev (ijtimoiy-psixologik hodisa va uning insoniyat rivojlanishidagi o'zgarishlari), V.V.Serikov (shaxsga yo'naltirilgan ta'limning yangi paradigmasi), V.I.Baydenko (kompetensiyaviy formatda DTSning konseptual modeli) E.F.Zeerlar(kasbiy rivojlanishda kompetensiyaviy yondashuv)lar tomonidan talabalarining ijtimoiy kompetentligini shakllantirishda, o'quv hamkorligini tashkil qilish, kasbiy kompetensiyalar va pedagogik qo'llab-quvvatlash kabi hamkorlikning turli aspektlari va muammolari o'rganilgan.

Xorijlik olimlaridan Abdul Hameed Panhwari (talabalar faoliyatining guruh shaklini tashkil etish va o'yin usullari)¹⁵ S.Sharan, I.Sharan (kichik jamoaviy o'qitish)¹⁶, D.W.Johnson, R.T.Johnson (ta'limga oid muloqat va texnologiyalarni tadqiqotda qo'llash)¹⁷, Ch.Bernard (ijtimoiy mas'uliyat)¹⁸, R.E.Slavin(Talabalar jamoalarida tengdoshlarini taqqoslash va muvaffaqiyati munosabatlariga ta'siri)¹⁹lar hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish masalalarini ilmiy izlanishlarida amalga oshirilgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlarda hamkorlikga oid tushunchalarni rivojlantirishning omillari, pedagogik-psixologik xususiyatlari, muvaffaqiyatli hamkorlik vositalari, innovatsion shakllari va amalga oshirish imkoniyatlari talqin etilgan, biroq talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari atroflicha o'rganilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari mos ravishda "Sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

¹³ Sa'dullayev B.B. O'yinlar vositasida talabalarda do'stona munosabatlarga asoslangan ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi: p.f.f.d. (PhD diss.... Samarqand – 2019. 14-bet,

¹⁴ N.A.Muslimov, MB Urazova, N Eshpulatov Sh - Monografiya.-T.: " Fan va texnologiya" ..., 2013

¹⁵ Abdul Hameed Panhwar1, Abdul Sattar Gopang, Zubair Ahmed Chachar hameed.panhwar@usindh.edu.pk Vol. 7, No. 5; 2017, ISSN

¹⁶ Sharan, S., Sharan Y. Small group-teaching / S. Sharan, Y. Sharan. – Yenglewood Cliffs, NJ: Yeducational Technology Publications, 1996. – 237 p.

¹⁷ D.W.Johnson, R.T.Johnson, L. Scott. The effects of cooperative and individual instruction on student attitudes and achievement [Text] // J. Soc.Psychol. - 1978. -V. 104. - P. 207—216.

¹⁸ Barnard C.I. The Functions of The Yexecutive / C.I. Barnard. – Harvard, 1938. – 384 p.

¹⁹ Slavin R.E. Student teams and comparison among equals: Yeffects on academic performance and student attitudes. / R.E. Slavin. – Journal of Yeducational Psychology, vol. 70, 1978. – P. 532-538.

Tadqiqotning maqsadi klasterli yondashuv asosida talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish texnologiyasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

klasterli yondashuv asosida talabalarda hamkorlik kompetensiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati va komponentlarini aniqlashtirish hamda pedagogik-psixologik fanlar kesimida hamkorlik kompetensiyalari borasidagi qarashlarni komparativ tahlil qilish va aniqlashtirish;

klasterli yondashuv tamoyiliga urg'u berish orqali hamkorlik kompetensiyalari shakllari va darajalarini aniqlashtirish hamda ular asosida talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

hamkorlik kompetensiyasining bajaradigan funksiyalarini aniqlashtirish hamda ularga ustuvorlik berish asosida talabalar jamoasida hamkorlik kompetensiyasini rivojlantirish modelini umumlashtirish;

talabalarda hamkorlik kompetensiyalarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish hamda ular asosida hamkorlik kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasi mezonini va didaktik ta'minotini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta'lim muassasalari talabalarida hamkorlik kompetensiyalarini takomillashtirish texnologiyasini tatbiq qilish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Andijon, Namangan, Buxoro viloyatlaridan 528 nafar talabalar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini klasterli yondashuv asosida oliy ta'lim muassasalari talabalarida hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmuni, shakli, usul va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari tadqiqot jarayonida, pedagogik kuzatuv, nazariy-mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, pragmatik tahlil, tasniflash, suhbat, matematik-statistik tahlil, struktural tahlil, anketa-so'rovnomalari, pedagogik tajriba-sinov kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarda hamkorlik kompetensiyalari tushunchasining mazmun-mohiyati va komponentlari klasterli yondashuv tamoyiliga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirilgan;

klasterli yondashuv asosida talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi hamkorlik kompetensiya shakllari (individual, kichik guruhlarda va katta guruhlarda ishlash) va darajalari (mikro, mezo va makro)ni munosib uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarda hamkorlik kompetensiyasini rivojlantirish modeli hamkorlik kompetensiyalarining bajaradigan funksiyalari (jamoaning qiyofasini belgilash, jamoa a'zolariga motivatsiya berish, jamoa a'zosining o'z-o'zini anglashiga, jamoadagi muhitga moslashishiga yordam berish, jamoani boshqarishni osonlashtirish, jamoa faoliyatini tartibga solish, hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish kabi)ga hamda klasterli yondashuvga ustuvorlik berish asosida umumlashtirilgan;

talabalarda hamkorlik kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari talabalarda hamkorlik kompetensiyalarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi klasterli yondashuv omillariga urg'u berish asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning natijalarining ishonchligi. Tadqiqotning metodologik bazasini yaratilganligi, rasmiy manbalardan olingan nazariy va amaliy ma'lumotlardan samarali va o'rinli foydalanilganligi, olingan empirik miqdorlarning matematik statistikaning ishonchli va maqbul usullari yordamida tahlil qilinganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati birgalikdagi faoliyatning psixologik konsepsiyasining asosiy qoidalari, ishonchning ijtimoiy-pedagogik tushunchasi, ta'lim jarayonini asosi sifatida rivojlanishning klaster nazariyasi, ta'limda klaster tashabbuslarini qo'llash sohasida ishlash, pedagogika va pedagogik-psixologiya nazariyotchilari va amaliyotchilarining ishlarida bayon etilgan hamkorlik va ijodiy o'zini namoyon qilish qoidalari, oliy ta'lim muassasalarida hamkorlik g'oyalarini amalga oshirish muammosi bo'yicha tadqiqotlarga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati. Oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga doir "Kasbiy pedagogika", "Boshqaruv psixologiyasi" fanlari bo'yicha o'quv qo'llanmalar ishlab chiqilib, talabalar hamkorligi kompetensiyasini yaratishga qaratilgan o'quv-uslubiy ta'minot boyitilgan va amaliyotga joriy etilgan;

ta'lim jarayoni subyektlari o'rtasidagi hamkorlik kompetensiyasini oshirish muammolarini tadqiq qilish va hal qilish "Pedagogika psixologiya" faniga doir darslik va "Yosh mutaxassislarda hamkorlik kompetensiyasini rivojlantirish" trening mashg'ulotlar dasturi yaratilganligi bilan izohlanadi;

talabalarda hamkorlik kompetensiyalari baholash xaritasi deb nomlangan ilova yaratilgan. Ilovada talabalarda hamkorlik kompetensiyalar darajasini aniqlash va uni rivojlantirishga qaratilgan so'rovnomalar ishlab chiqilgan; <https://play.google.com/store/apps/details?id=com.quar.psixologik&pli=1>

klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirish metodikasi deb nomlangan elektron dasturlar yaratilgan. № DGU 41016

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

klasterli yondashuv tamoyiliga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirilgan talabalarda hamkorlik kompetensiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati va komponentlari "Kasbiy pedagogika" va "Boshqaruv psixologiyasi" nomli o'quv qo'llanmalar mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi TDPU ning 2024-yil 2-noyabrdagi 11-05-6303/04-son ma'lumotnomasi). Natijada ta'limning har qanday ko'rinishida bazaviy, qo'shimcha, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga doir monitoring jarayonlarini nazorat qilish xususiyatlari aniqlashtirilgan;

klasterli yondashuv asosida talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning shakllari (individual, kichik guruhlarda va katta guruhlarda ishlash) hamda darajalari (mikro, mezo va makro) ni munosib uyg'unlashtirish, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi asosida barcha tizimlarda belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni uslubiy ta'minlash" mavzusidagi o'tkazilgan targibot ishlarini tashkil etish va o'tkazilshda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024-yil 10-dekabrda 10-202-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, klasterli yondashuv asosida talaba shaxsining ijodiy imkoniyatlarini ochib berish, rivojlantirish va amalga oshirish algoritmik jarayoni orqali talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga erishilgan;

talabalarda hamkorlik kompetensiyalari rivojlantirish modelini hamkorlik kompetensiyalarining bajaradigan funksiyalariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan Andijon davlat universitetida bajarilgan OT-F-1-17-raqamli "Ma'naviy begonalashuvning oldini olishda shaxs faolligini oshirishni ijtimoiy-pedagogik tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyahasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan; (Andijon davlat universitetning 2024-yil 13-noyabrda 04-2506-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, hamkorlik kompetensiyalarini ta'lim hamkorligi negizida takomillashtirish bo'yicha metodologik bilim, ko'nikma va malakalarning yaxlit texnologiyasi ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan;

talabalarda hamkorlik kompetensiyalarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga urg'u berish asosida takomillashtirilgan hamkorlik kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonini "Kasbiy pedagogika" va "Boshqaruv psixologiyasi" nomli o'quv qo'llanmalar mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi TDPU ning 2024-yil 2-noyabrda 11-05-6303/04-son ma'lumotnomasi). Mazkur fanlarning oliy ta'lim muassasalarida olib borilgan ta'lim shakllarida ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, "talaba-talaba", "talaba-guruh", "talaba-pedagogik jamoa", "pedagog-pedagog" ma'naviy-axloqiy munosabatlarini yaxshilash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish, O'zbekiston Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarida, 1 ta darslik va 2 ta o'quv qo'llanma chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 158 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, muammoning o'rganilganligi darajasi, maqsadi, vazifalari asoslangan, shuningdek, tadqiqotning obykti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim

yo‘nalishlarga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi ishning tuzilishiga oid ma‘lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida hamkorlik kompetensiyasi va u bilan bog‘liq tushunchalarning kontekstual ilmiy-nazariy tavsifi, ijtimoiylashuv talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish omili ekanligi, “hamkorlik” tushunchasining pedagogik-psixologik fanlar kesimida aloqadorligi, talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishda klasterli yondashuvning o‘rni va ahamiyati sintez qilingan.

Ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy davri yangicha dunyoqarashni belgilovchi nisbatan yangi ruhiy paradigma bilan tavsiflanadi, ya‘ni dunyoga yaxlit o‘zaro bog‘liq tizim sifatida qarash ahamiyatli hisoblanadi. Bu tizimda talabalar bilan o‘zaro munosabatda o‘z shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqaradigan shaxs o‘ziga xos o‘rin tutadi. Talabalar hamkorligi o‘quv modelidan foydalanishni birgalikda hal qilishga qaratilgan real vaziyatlarni modellashtirishni o‘z ichiga oladi. Talaba bunday o‘quv jarayonida faol ishtirok etib, o‘zaro munosabatlarning subyektiga aylanadi. Hamkorlikning pedagogik mohiyati S.L.Rubinshteynning faoliyat va shaxs rivojlanishining aloqadorligi haqidagi psixologik qonuni asosida yanada aniq mohiyat kasb etadi²⁰.

“Hamkorlik” tushunchasi falsafiy, pedagogik, psixologik, sotsiologik, siyosiy, iqtisodiy, mantiq, san‘at, adabiyot nuqtai nazaridan o‘ziga xos talqin etiladi. Obyekt turfadir, ammo subyekt bir xil, deyish mutlaqo to‘g‘ri bizningcha.

Pedagog olimi Z.Azimova “Shaxslararo munosabatlar pedagogik jarayon ishtirokchilarining o‘zaro hamkorligi, sherikligi, birgalikdagi harakati, bir-biriga ta‘siri asosiga quriladi. Boshqa bir insonni o‘zaro ta‘sir subyektiga, mustaqil shaxs sifatida tan olish tafakkur sarhadlarini kengaytirishga yordam beradi, borliqni muammoli idrok etishga boshlaydi. Shaxsning subyektiv pozitsiyasi borliq olam, odamlar, o‘z-o‘zi bilan munosabatlar tizimi orqali ifodalanishi mumkin” degan fikrni ta‘kidlaydi²¹.

Hamkorlik jamoa a‘zolarining kelajakda yuqori natijalarga erishishlarida katta ahamiyatga ega. U shaxsiy va ijtimoiy birlik va o‘zaro aloqalar bilan bog‘liqdir. Shu o‘rinda “hamkorlik” va “kompetensiya” hodisalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, o‘zaro to‘ldiruvchi va taqozo etuvchi, bir- birini boyituchi tushunchalar ekanligini alohida ta‘kidlash muhim.

Kompetensiya (lotincha “competo” so‘zidan olingan bo‘lib, “erishaman, muvofiqman, mos kelaman” ma‘nolarini beradi) — kishi egallagan muayyan bilim, ko‘nikma, malakalar majmuasini anglatadi.²²

Hamkorlik kompetensiyasi jamiyat yoki jamoa ichidagi o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. U a‘zolar o‘rtasida ishonch, hurmat va adolatni ta‘minlaydi.

²⁰ Рубинштейн С.Л. Принципы и пути развития психологии. – М.: РСФСР. ПФА, 2004. 8- изд. – 180 с.

²¹ Z.E.Azimova. O‘quvchilarning shaxslararo munosabatlari integral diagnostikasi. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T. 2009, 34 bet.

²² <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/pedagoglar/talim-va-men/kompetensiya-nima/>

Xorijlik olim V.Serikovning ta'kidlashicha "kompetensiyani shaxsiy o'zini o'zi anglashga hissa qo'shadigan bilim, ko'nikma, ta'limning mavjudligi" sifatida belgilaydi va uni esa hayot davomida mohirona bajarilgan harakat"²³ deb izohlaydi.

Hamkorlik kompetensiyalari talabalar ijtimoiylashuvining turli shakllarida mavjud.

1. Talaba-talaba hamkorligi
2. Talaba-talabalar jamoasi.
3. Talaba-guruh rahbari yoki o'qituvchi.

Bu shakllar talabalar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi, o'zaro fikr almashuvlarni yo'lga qo'yishga yordam beradi va talabalar o'zlarini jamoa a'zosi sifatida his qilishlariga yordam beradi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi "**Klasterli yondashuv asosida talabalarda hamkorlik kompetensiyalar rivojlantirishning metodik asoslari**" deb nomlangan bo'lib, unda klasterli yondashuv asosida talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, hamkorlik kompetensiyalarining tarkibiy-tuzilmaviy modeli va talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning klasterli yondashuvga asoslangan metodikasi ("Umumiy pedagogika" fani misolida) bayon qilingan.

Klasterli yondashuvni zamonaviy talabalararo hamkorlik kompetensiyalarini vujudga kelishining nazariy va metodik jihatdan o'zagi sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Mazkur yondashuvning o'ziga xosligi talabalarning samimiy raqobatbardoshligini oshirishda ta'lim tizimiga o'zaro ijobiy munosabat, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, kasbiy faoliyat yuzasidan ko'prik vazifasini o'taydi deb ishonch bilan aytish mumkin.

Akademik R.Djurayev umumiy tahriri ostida tuzilgan Pedagogikadan atamalar lug'ati"da "klaster" (tarmoqlar) metodi quyidagicha ta'riflanadi:

1) klaster metodi o'quvchilarga mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, umumiy fikr doirasini kengaytirish va atamalar, tushunchalar hamda voqealarning o'zaro bog'liqligini anglab olishga yordam beruvchi metod hisoblanadi;

2) klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik va didaktik strategiyaning ma'lum bir shakli bo'lib, tahsil oluvchilarga ixtiyoriy muammolar (mavzular). xususida erkin va ochiq fikr yuritish, shaxsiy fikrlarini bemalol ifoda etish uchun sharoit yaratishga yordam beradigan usuldir. Qolaversa, klaster tushunchasi 1980-yillarda Garvard universiteti talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda klaster yondashuvidan samarali foydalanish variantlarini tavsiflab, talabalararo yuzaga kelishi mumkin bo'lgan klasterlarning turfa xil yo'nalishlarini quyidagi xususiyatlarini belgiladi:

– klasterning birinchi turi kafedra professor-o'qituvchilari hamda talabalarni birlashtirishga xizmat qilishi;

– klasterlarning uchinchi turi tashqi hamkorlar ishtiroki doirasida ijtimoiy-iqtisodiy manfaatdorligidan kelib chiqib, ma'lum bir turdagi loyihalarni amalga

²³ Сериков В.В. Обучение как вид педагогической деятельности: учебное пособие для студентов высших учебных заведений / В.В.Сериков. – М.: Академия, 2008. – 256 с

oshirishga qaratilib, oliy ta'lim muassasalarining tashqi hamkorlikdagi o'zaro sherikchilikni mustahkamlanishiga xizmat qilishi;

– klasterning to'rtinchi turi bir qancha oliy ta'lim muassasalar katta korxonalar bilan yirik loyihalarda ishtirok etishida shakllanadi.

Klasterli yondashuv asosida oliy ta'lim talabalarida hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishda turli ta'lim metodlaridan foydalanish mumkin

1. Kooperativ ta'lim.
2. Maslahatlashuv va ijodiy amaliyotlar.
3. Hamkorlik va hamjihatlik.
4. Ta'limiy o'yinlar va simulatsiyalar.
5. Amaliyotlar va loyihalar bajarish.

Klasterli yondoshuv asosida oliy ta'lim talabalarida hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Bu texnologiyalar o'quv jarayonida ko'proq hamkorlikni ta'minlash uchun ishlatiladi. Quyidagi texnologiyalar klasterli yondashuvda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun foydali bo'ladi:


1. Virtual darsliklar va onlayn platformalar
2. Videokonferensiyalar va interaktiv kommunikatsiya texnologiyalari
3. Ta'limni individuallashtirish texnologiyalari.
4. Masofaviy laboratoriyalar va 3D-qurilmalar.
5. Loyihaviy ta'lim texnologiyalari.
6. Refleksiyaning individual va jamoaviy sessiyalari
7. O'zaro bir-birini o'qitish va teskari aloqa (peer-to-peer)

Talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini amalga oshirishga doir mexanizm ishlab chiqilgan, faoliyatga oid funksiyalar tizimli ravishda natijani kafotlashini aks ettiruvchi model shakllantirilgan (1-rasmga qarang).


Model bu ilmiy tadqiqot ishining sxema ko'rinishidagi shabloni ekanligini inobatga olib, model tuzilmasi tarkibi va uni amalga oshirish g'oyasi va bunda talabalarining va o'qituvchini funksional vazifalari va uni amalga oshirish mexanizmlarini ochib berishga xarakat qilganmiz. Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari ochib berilgan. Modelning tarkibiy qismlari (maqsad, metodologik yondashuv, pedagogik jarayon va natija(baholash) kabi komponentalari izohlangan. Modelning keng qamrovli tavsifi dissertatsiya matn mazmunida keltirilgan.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida o'rtasidagi hamkorlik kompetensiyasi nafaqat ta'lim jarayonini, balki ijtimoiy va kasbiy hayotni ham boyitadi, bu esa talabalarni kelajakda muvaffaqiyatli shaxslar sifatida shakllanishiga yordam beradi. Hamkorlik faoliyati o'z-o'zini tashkil etish xususiyatiga ega bo'lib, ijtimoiy jihatdan ahamiyatli va samarali qadriyatlarni bunyod etishga qaratilgan.

Ushbu jarayonda o'zaro ta'sir subyektlarining muvofiqlashtirilgan birgalikdagi faoliyatini shakllantiruvchi tarkibiy qismlar quyidagilardan iborat (2-rasmga qarang):



1-rasm. Talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli.



2-rasm. Hamkorlik faoliyatining tarkibiy qismlari.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion-integratsion mexanizmida jarayonning nazariy-amaliy jihatdan uyg'unligi faoliyatning mazmuni sifatida ishlab chiqildi. (3-rasm)

Ta'lim jarayonini klasterlashning nazariy jihatlarini o'rganib, talabalar taqdimotlar tayyorladilar. Ularning mazmuni ta'lim klasterlarining afzalliklaridan amaliy faoliyatda samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib berdi. Talabalar o'rtasida hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan klaster o'zaro ta'sir algoritmining asosiy bosqichlari quyidagicha tuzildi:

1-bosqich Klaster asosida o'zaro aloqa ishtirokchilarining manfaatlarini o'rganish.

2-bosqich. Klasterning asosiy masalalarini tahlil qilish va tadqiq qilish.


3-bosqich. Klasterni ishga tushirish.

4-bosqich. Klasterning o'zaro ta'siri natijasida faoliyat mahsulini taqdim etish.


5-bosqich. Klasterning o'zaro ta'siri samaradorligini baholash, aks ettirish.

Klasterli o'zaro ta'sir bosqichlari talabalar o'rtasida hamkorlik kompetensiyalarini shakllantirish jarayonining tarkibiy qismlari bo'lib xizmat qiladi. Hamkorlik kompetensiyalarini yaratuvchi sintezi ajralmas shaxsiy xususiyat sifatida yuzaga kelgan universitet talabalarida shakllangan fazilatlar bilan bog'liq bo'lib, talabalar boshqa tengdoshlari bilan samarali munosabatlarni rivojlantirish qobiliyatini nazarda tutadi. Klasterning har bir bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari, amalga oshirish bosqichlari dissertatsiya matnida batafsil yotirilgan.

Talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning klasterli yondashuvga asoslangan metodikasi "Umumiy pedagogika" fani orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Ushbu usul talabalarda ishonch, maslahatgo'ylik va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Quyidagi bosqichlarda bu usulni amalga oshirish mumkin (4-rasmga qarang):



4-rasm. Talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishda klasterli yondashuvni tashkil etish bosqichlari



3-rasm. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning integratsion mexanizimi

“Klasterli yondashuv asosida talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorli” nomli dissertatsiyaning uchinchi bobida oliy ta’lim muassasalari talabalarida hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish yuzasidan pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o’tkazishning tashkiliy asoslari va oliy ta’lim muassasalari talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga doir pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari batafsil yoritib berilgan.

Talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish bo’yicha tajriba- sinov ishlari asoslovchi, shakllantiruvchi, ta’kidlovchi bosqichlarda o’tkazildi. Tajriba-sinov ishini tashkil etishda ulardan foydalanishning I. Tashxis metodlari: anketa; suhbat; pedagogik kuzatish; intervyu; hujjatlarni o’rganish va tahlil qilish; ekspert baholash. II. Tahlil metodlari: qiyosiy tahlil; matematik-statistik tahlil. III. Rivojlantiruvchi metodlar: loyiha metodi; rivojlantiruvchi metodlar; muammoli metodlar, interfaol metodlar, keyslar kabi amaliy jihatlariga asosan amalga oshirildi.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarida hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik auto-treningli tashkiliy xususiyatlari, talabalarning o’z-o’zini tahlil qilish xaritasi, talabalar jamoasida o’z-o’zining ijobiy shaxsiy sifatlarini baholash xaritasi, talabalar jamoasida hamkorlik masofasi shkalasi, “Halollik vaksinasi” keysi maxsus metodikalari hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmi sifatida xizmat qildi.

Yuqorida ta’kidlanganimizdek, klasterli yondashuv asosida talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi bo’yicha tajriba-sinov ishlari o’tkazildi. Klasterli yondashuv asosida talabalarda hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo’yicha tajriba boshidagi (t.b.) va tajriba oxiridagi (to) ma’lumotlarni umumiy holda keltiramiz.

1-jadval.

Tajriba-sinov ishlarining umumlashgan tajriba boshidagi (t.b.) va tajriba oxiridagi (t.o.) natijalari

Mezonlar	Tajriba guruhi (Respondentlar soni-265)						Nazorat guruhi (Respondentlar soni-263)					
	yuqori		o’rta		past		yuqori		o’rta		past	
	T b	To	Tb	To	Tb	To	Tb	To	Tb	To	Tb	To
1 Hamkorlarning bir-birlariga nisbatan simpatiyalarini yaxshilash	61	110	97	114	107	41	55	61	96	110	112	92
2 Jamoada hamkorlik kompetensiyalarni rivojlantirish bo’yicha yagona axborot makonini shakllantirish	62	111	98	115	105	39	54	63	95	106	114	94
3 O’zaro ta’sir subyektlarining individual xususiyatlarini	59	112	99	116	107	37	53	60	94	109	116	94

	amalgaga oshirish va rivojlantirish												
4	O'zaro hamkorlik ishtirokchilarining raqobatbardoshligi va harakatchanligini oshirish	60	113	97	112	108	40	57	59	97	108	109	96
5	O'zaro hamkorlikda muayyan, ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulot ishlab chiqarish	63	109	99	113	103	43	56	57	93	107	114	99
	Umumiy o'rtacha	61	111	98	114	106	40	55	60	95	108	113	95

Izoh: tb – tajriba boshida, to – tajriba oxirida.

